



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 iyun holatiga


2017 yilning 1 iyun holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14422 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 642 taga ko'pdir (4,7%).

Shuningdek, faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13920 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga ko'paygan hamda ularning soni 689 tani tashkil

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 24 ta (4,6 %) ga kamaygan hamda ularning umumiy soni 526 tani tashkil etgan.


Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni 924 taga etib, tugatilganlar soni **826 taga kamligi va ularning umumiy soni 389 ta ekanligi kuzatilmoqda.**

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-may oylarida 924 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 10,5 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (268 ta), Xiva tumani (143 ta), Urganch (101 ta) va Xonqa tumanlarida (79 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (23 ta), Bog'ot (28 ta) hamda Shovot (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat (255 ta), savdo (203 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (116 ta) va yashash va ovqatlanish (78 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta) hamda tashish va saqlashda (35 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 47 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 38,2 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-may oylarida 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'radigan bo'lsak sanoatda – 5 ta, savdo, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2017 yil 1 iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10940 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 iyun holatiga qaraganda 6,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2742 tasi (25,1 %) Urganch shahriga, 2273 tasi (20,8 %) Xiva, 1134 tasi (10,4 %) Urganch tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10940 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3292 tasi (30,1 %) – savdoda, 2151 tasi (19,7 %) - sanoatda, 1375 tasi (12,6 %) - qurilishda, 1041 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 736 tasi (6,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 516 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 209 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 205 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1415 tasi (12,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-may oylarida 888 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 45,3 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (251 ta), Xiva (143 ta), Urganch tumanlarida (99 ta), tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (21 ta), Bog'ot (28 ta) hamda Shovot (30 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (255 ta), savdoda (203 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (115 ta) va yashash va ovqatlanishda (78 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta), tashish va saqlashda (35 ta) hamda qurilishda (73 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 iyun holatiga 760 tani tashkil etib, ulardan 743 tasi yoki 97,7 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
 Statistik registrlarni yuritish bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: D.Kurbanova
 (0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan